

IBN ASIR JAZARIY HAYOTI VA ILMUY FAOLIYATINING TAHLILI

Hasanova Dilbar

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi o‘qituvchisi

Hamroqulova Robiyaxon

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi magistri

E-mail: robiya127@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola musulmon tarixchisi Ibn Asir Jazariy hayoti, ilmiy faoliyati va asarlari haqidagi ma’lumotlarni o‘zida jamlagan va mavzuga doir muallifning tahlil va xulosalarini aks ettirgan. Muallif maqolani yoritishda Ibn Asirning asarlari va olimning hayotiga doir birlamchi manbalarga bevosita murojaat qilgani, o‘quvchiga ishonchli va ob’ektiv qarashlar shakllanishiga xizmat qilgan.

Kalit so‘zlar: Ibn Asir, islom tarixi, muarrix, Iroq, Mosul, Ibn Hallikon, “Al-Kamil fit-tarix”, Jaloliddin Manguberdi, balog‘at.

KIRISH

O‘rta asrlarda o‘zining yetuk ilmiy salohiyati bilan jahon ilm-fani rivojiga ulkan hissa qo‘sghan ko‘plab musulmon olimlari yetishib chiqdilar. Shunday olimlardan biri Ibn Asir nomi bilan mashhur musulmon tarixchisi Izzuddin Abu Hasan Ali ibn Muhammad Jazariydir. Ibn Asir o‘z ilmiy faoliyati davomida Xorazmshohlar sulolasni, xususan, Jaloliddin Manguberdining shaxsiy hayoti, uning mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi olib borgan kurashlarini ham atroflichcha o‘rgangan. Mazkur ilmiy ishda bilishning tarixiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil, umumlashtirish kabi usullaridan foydalanildi.

ASOSIY QISM

Butun islom olamining faxri hisoblangan tarixchi allomaning to‘liq ismi Izzuddin Abu Hasan Ali ibn Abu Karam Ibn Asir ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Abdulkarim ibn Abdulvahid Shayboniy Jazariy Mosuliydir. Olim 555-hijriy (1160-milodiy) yilda Jazirat ibn Umar (hozirgi Turkiya hududida) dunyoga kelgan. Bani shaybon qabilasidan. Ibn Asirning kelib chiqishi borasida ba’zi olimlar arab, boshqalar esa kurd degan qarashni ilgari surganlar. Uning otasi zamonasining o‘qimishli kishilaridan bo‘lib, o‘z farzandlarining ta’lim olishiga jiddiy e’tibor qaratgan. Ibn Asir

kichik yoshdayoq Qur’oni Karimni yod olgan va turli xil qiroatlar va yozish uslublarini o‘rgangan¹.

Keyinchalik, oilaviy sabablarga ko‘ra oila Iroqning shimoli-g‘arbiy qismidagi Mosul shahriga ko‘chib o‘tgan. U yerda bo‘lajak olim Abu Fazl Abdulloh ibn Ahmad Tusiy va Abu Faroj Yahyo Saqofiylardan hadislar eshitgan. Haj safariga borgan va qaytish chog‘ida kibor shayxlardan hadis o‘rganish uchun Bag‘dod shahriga tushgan va u yerda Shofe’iy mazhabi faqiji Abu Qosim ibn Sodaqo va Abu Ahmad Abdulvahhob Sudamiylardan hadis o‘rgangan². So‘ngra Damashq shahriga borgan va Shomning kata faqihlari va olimlaridan ilm o‘rganish uchun bir muddat u yerda istiqomat qilgan. Orada Shomga Bag‘dod xalifalari nomidan elchi bo‘lib borgan va bu lavozimda bir muddat ishlagan, shuningdek, Ibn Asir Salohiddin Ayyubiy bilan birga salibchilarga qarshi urushlarda qatnashgan. Ilm talabida davom etgan uzoq safarlardan so‘ng, umrining oxirlarida Mosulga qaytib boradi va vaqtini faqat ilm bilan shug‘ullanishga sarflaydi, turli kitoblar tasnifi bilan shug‘ullanadi.

MUHOKAMA

Ibn Asirning Mosuldagagi uyida o‘z davrining eng mashhur olimlari, tarixchilar va adiblari tez-tez yig‘inlar o‘tkazib turishar edi. Yana bir mashhur musulmon tarixchisi Ibn Hallikon nomi bilan mashhur Shamsuddin Ahmad ibn Muhammad uning yaqin do‘stilaridan bo‘lgan va ular tez-tez ilmiy munozaralar o‘tkazib turgan. Ibn Hallikon u haqida quyidagi ijobiy so‘zlarni keltiradi: “Uning Mosuldagagi uyi o‘zida fozillarni jamlagan edi. U bilan Halabda uchrashdim va uni go‘zal ahloq va fazilatlar sohibi ekanligini ko‘rdim”³. Ibn Hallikon bergen ma’lumotlar Ibn Asir hayotini o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi.

Allomaning to‘liq ismi borasida ixtiloflar bor. Jumladan, Munziriyy, Qusiy, Ibn Hajib, Ibn Zohiriyy, Ibn A’dim kabi olimlar fikriga ko‘ra uning ismi Aliy ibn Muhammad ibn Abdulkarim shaklida yoziladi. Bu masalada Ibn Hallikon, Ibn Sa’iy va Shamsiddin Yusuf ibn Javziy bir qadar farqli qarashni ilgari surgan. Ular buyuk olimning ismini Aliy ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Abdulkarim shaklida yozilishini ishonch bilan keltirib o‘tganlar va uning nasabini og‘alari nasabi bilan bir xil bo‘lishini ta’kidlaganlar.

Ibn Hallikon, Abu Muzaffar al-Javziy, Ibn Sa’iy va Ibn Zohiriyy singari olimning hayotini o‘rgangan tarixchilar Ibn Asirning vafotini hijriy 630-yilning Sha’bon oyiga

¹ Zahabiyy, Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad Usmon . Siyar ul-a’lam an-nubalo. – Bayrut: Muassasat ar-risalati, 1996. – T. 22. – B. 354.

² Ibn Asir, Izzuddin Abu Hasan Aliy ibn Muhammad Jazariy. Usdul g’oba fiy ma’rifatus sahaba. – Bayrut: Darul kutubul ilmiyya, 2003. – T. 1. – B. 89.

³ Zahabiyy, Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad Usmon . Siyar ul-a’lam an-nubalo. – Bayrut: Muassasatur risalati, 1996. – T. 22. – B. 355.

to‘g‘ri kelishini, lekin, kuni aniq emasligi haqida xulosa berishgan¹. G‘arblik sharqshunos olim A. Shvarts bu sanani milodiy 1233-yilga to‘g‘ri kelishini ma’lum qilgan. Ibn Asir zamonaviy hisob-kitoblarga ko‘ra 73 yoshida kasallik sababidan Iroqning shimoli-g‘arbiy hududidagi Naynavo poytaxti Mosul shahrida vafot etgan.

Ilm talabidagi safarlar davomida Ibn Asir ko‘plab olimlar bilan muloqot qiladi va hadis, fiqh, usul, faroiz, mantiq va qiroat ilmlarini o‘rganadi. Ko‘plab ilmlarni egallashiga qaramasdan, keyinchalik, Ibn Asir butun e’tiborini ikki yo‘nalishga qaratadi: hadis va tarix. Shu boisdan u hadis imomi bo‘lib yetishdi, hadislarni va hadislarga aloqador ilmlarni puxta o‘rgandi. Shuningdek, tarix ilmini, arablarning nasablari, bayramlari va xabarlarini chuqur o‘rgandi. U tarixchi sifati bilan shu qadar tanildiki, hatto boshqa ilmlarini bu soha soyada qoldirdi. Ko‘pchilik uning tarixdan boshqa sohalarni ham chuqur o‘rgangani haqida bilmaydi.

NATIJALAR

Ibn Asirdan ko‘p sonli bo‘lmasada ulkan ahamiyatga ega meros qoldi. U bir qancha asarlar ta’rif etgan bo‘lib, ularning asosiy qismi tarixiy asarlar hisoblanadi va o‘rta asrlar tarixini o‘rganish uchun muhim manba bo‘lib xizmat qila oladi. Quyida ular bilan tanishish mumkin:

1. “Al-Kamil fit tarix” (Mukammal tarix kitobi). Ibn Asir Jazariy asarlari orasidagi eng mashhuri va boshqa asarlariga nisbatan bir muncha keng va batafsil o‘rganilgani hisoblanadi. Mazkur asar ikki qismga bo‘linadi: muqaddima va asosiy tarixiy voqealar qismlariga. Muqaddimada asar mazmuni, uning yozilishidan muallifning maqsadi, muallif tanlagan uslubi, asar nomlanishi, asarning dunyoviy va diniy foydalari haqida so‘z boradi. Asar 10 jilddan iborat bo‘lib, zamonaviy nashrlarda 11-jild fixrist ilova qilinadi. O‘rganilayotgan davr ham ikki qismga bo‘linadi: dunyoning yaratilishidan boshlab islomgacha bo‘lgan davr va islom dini paydo bo‘lishidan boshlab hijriy 628-yilgacha (milodiy 1230) bo‘lgan davrlar².

“Al-Kamil” asari o‘rta asrlarda mo‘g‘ul-tatarlarning islom olamiga qilgan bosqinlarini, shuningdek, salib yurishlari va ularning oqibatlarini o‘rganish jihatidan ham muhim ahamiyatga ega. Chunki, Ibn Asir o‘zi yashagan davrda sodir bo‘lgan va shaxsan o‘zi ishtirok etgan voqealarni bayon qilishi asarning tarixiy manba sifatida ishonchlilagini yanada oshiradi. Asarning so‘nggi jildida buyuk vatandoshimiz Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi, uning ukasi bilan bo‘lgan ziddiyati va uning Chingizzon boshchiligidagi mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi kurashi keng

¹ Ibn Asir, Izzuddin Abu Hasan Aliy ibn Muhammad Jazariy. Usdul g’oba fiy ma’rifatus sahaba. – Bayrut: Darul kutubul ilmiyya, 2003. – T. 1. – B. 100.

² Ibn Asir, Izzuddin Abu Hasan Aliy ibn Muhammad Jazariy. Al-Kamil fit Tarix. – Bayrut: Darul kutubul ilmiyya, 1987. T. 1. – B. 7; D. S. Richards. The Chronicle of Ibn al-Athir for the Crusading Period. - Angliya: British Library, 2010. – B. 6.

ko‘lamli ma’lumotlar o‘quvchiga taqdim etiladi. Muallif buyuk vatandoshimizning murakkab kechgan hayotining suronli yillari haqida batafsil ma’lumot berish bilan bir qatorda yurtimiz tarixi haqida ham ishonchli ma’lumotlar keltirgani bilan asarning xalqimiz tarixidagi ahamiyatini yana bir karra oshiradi.

2. “Usdul g‘oba fiy ma’rifatus sahoba”. Buyuk tarixchining eng mashhur asarlaridan biri. Sahobiylar haqida keng ko‘lamli ma’lumotlar tartib bilan berilgan.

3. “At-tarixul bahir fid davlatil atabikiyya”. Mashhur olimning tarixiy yo‘nalishdagi yana bir asari. Mazkur asar Suriya va Mesopatamiya hududida o‘rta asrlarda hukm surgan zangiylar sulolasi tarixiga bag‘ishlanadi¹.

4. “Kitabul lubab fi tazhibul ansob”. Nasab ilmiga bag‘ishlangan tarixiy asar. O‘rta asrlar islom tarixchisi Abu Sa’d Abdulkarim Sam’oniyning “Kitabul ansob” asarini muxtasar qilib yozilgan. Shuningdek, Ibn Asir Sam’oniyning asaridagi ayrim kamchiliklarni to‘g‘irlagan va ba’zi muhim qo‘shimchalar kiritgan.

5. Shuningdek, buyuk olim “Tarixul Mosul” asarini yozishga kirishgan. Lekin Imam Zahabiy keltirgan ma’lumotlarga ko‘ra Ibn Asir mazkur asarni tugallay olmagan².

6. “Al-jami’ul kabir” asari. Balog‘at ilmiga bag‘ishlangan. Mazkur asar haqida ma’lumotlar kam. Ushbu asar Ibn Asirni nafaqat tarixchi, balki, salohiyatli tilshunos olim ham bo‘lganini ko‘rsatadi.

7. “Adabus siyasa” asari. Ibn Asir hayotini hukmron doiralar bilan yaqin munosabatda o‘tkazar ekan, bu uning asarlariga ta’sir ko‘rsatmasligi imkonsiz edi. Ahloqiy janrdagi asar³.

XULOSA

Ibn Asirdan salmoqli ilmiy meros qolgan. Uning asarlari o‘rta asrlar musulmon dunyosi tarixini o‘rganish uchun ishonchli manba bo‘lib xizmat qila oladi. Buyuk olimning asarlari orasida “Al-Kamil” asari boshqalariga nisbatan mukammalroq o‘rganilgan. Mo‘g‘ul bosqinchilarining Markaziy Osiyoga qilgan yurishlarini ham yoritgani sababli ushbu asar O‘zbekiston tarixi uchun ham ahamiyatli hisoblanadi. Boshqa asarlari ustida yetarlicha tadqiqotlar olib borilmagan va sanoqli tillargagina tarjima qilingan. Ibn Asir o‘z davrida ko‘plab ilmlar bilan shug‘ullanganiga qaramasdan, uning tarix sohasidagi ilmi alohida e’tiborga sazovor bo‘ldi va boshqa sohalardagi muvaffaqiyatlarini soyada qoldirdi.

¹ Ibn Asir, Izzuddin Abu Hasan Aliy ibn Muhammad Jazariy. Usdul g‘oba fiy ma’rifatus sahoba. – Bayrut: Darul kutubul ilmiyya, 2003. T. 1. – B. 96.

² Zahabiy, Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad Usmon. Siyar ul-a’lam an-nubalo. – Bayrut: Muassasatur risalati, 1996. – T. 22. – B. 354.

³ Ibn Asir, Izzuddin Abu Hasan Aliy ibn Muhammad Jazariy. Usdul g‘oba fiy ma’rifatus sahoba. – Bayrut: Darul kutubul ilmiyya, 2003. – T. 22. – B. 96.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Ibn Asir, Izzuddin Abu Hasan Aliy ibn Muhammad Jazariy. Al-Kamil fit-Tarix. 1 va 10-tomlar. Bayrut: Darul kutubul ilmiyya, 1987.
2. Ibn Asir, Izzuddin Abu Hasan Aliy ibn Muhammad Jazariy. Usdul g'oba fiy ma'rifatus sahaba. Bayrut: Darul kutubul ilmiyya, 2003. – 743b.
3. Ibn Asir, Izzuddin Abu Hasan Aliy ibn Muhammad Jazariy. Al-Lubob fiy tahzib al-ansob. Bag'dod.
4. Zahabiy, Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad Usmon. Siyar ul-a'lam van-nubalo. 22-juz. Bayrut: Muassasat ur-risalati, 1996. – 435b.
5. Zahabiy, Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad Usmon. Tazkirat ul-huffaz. Bayrut: Darul kutubul ilmiyya, 1954. – 1509b.
6. D. S. Richards. The Chronicle of Ibn al-Athir for the Crusading Period. Angliya: British Library, 2010. – 940b.
7. Ibn Xallikon. Vafoyat al-a'yona va anba abna az-zamon. – Bayrut: Dar ul-kutub al-ilmiyya, 1998. – 342 b.
8. Dilbar, K. (2023). HOW TO ENGAGE STUDENTS WITH RELIGIOUS TEXTS AND IDEAS THROUGH THE EFL CLASSES. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 18(5), 23-26.
9. Khasanova, D. (2023). ENHANCING ENGLISH LANGUAGE TEACHING FOR ISLAMIC STUDIES STUDENTS: A FOCUS ON CURRICULUM DESIGN. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(12), 190-195.
10. <https://www.britannica.com>
11. <https://www.australianislamiclibrary.org>